**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil "17" may BUYRUQ № 103 Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, statistika ma’lumotlarini tarqatish va taqdim etish ishlarini yanada takomillashtirish hamda statistika byulletenlarini chop etishda rasmiylashtirishning yagona stilistikasiga rioya qilish hamda foydalanuvchilarni rasmiy statistika ma’lumotlari bilan ta’minlash sifatini yanada yaxshilash maqsadida, **BUYURAMAN**:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida statistika byulletenlarini rasmiylashtirish qoidalari” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari (bo‘limlari), Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari:

barcha statistika byulletenlarini mazkur buyruqqa asosan tasdiqlangan qoidalarga qat’iy rioya qilgan holda rasmiylashtirilishi va chop etilishini ta’minlasinlar;

tegishli tarmoq boshqarma va bo‘lim boshliqlari statistika byulletenlarining sifatli va o‘z muddatlarida tayyorlanishi hamda majburiy jo‘natmalar reyestriga muvofiq tegishli idoralarga doimiy ravishda yetkazib borilishini nazoratga olsinlar.

3. Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 22- sentabrdagi 65-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Direktor** **B. Begalov**

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2024- yil “17” maydagi
103- son buyrug‘iga ilova

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tizimida statistika byulletenlarini rasmiylashtirish qoidalari

Ushbu qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida, statistika organlari xodimlari tomonidan rasmiy statistika byulletenlarini ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Statistika dasturini amalga oshirish doirasida e’lon qilinadigan, statistika organlarida statistika byulletenlarini rasmiylashtirish bo‘yicha umumiy talablarni belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur qoidalar GSBPMning tarqatish bosqichi doirasida axborot resurslarida ma’lumotlarni yangilashga tayyorlash, materiallarni tarqatish uchun tayyorlash jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Rasmiy statistika byulletenlarini tayyorlashning asosiy maqsadlaridan biri, foydalanuvchilarning sifatli rasmiy statistika ma’lumotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan.

2. **Statistika byulleteni** – tezkor statistika ma’lumotlaridan iborat bo‘lgan va odatda ma’lum bir davr uchun jadval va tahliliy ma’lumotlar ko‘rinishidagi materiallar to‘plamini o‘z ichiga olgan qog‘oz yoki elektron shakldagi nashrdir.

Statistika byulleteni tezkor statistika kuzatuvlari ma’lumotlari asosida shakllantiriladi, ya’ni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan statistika ma’lumotlariga keyingi nashrlarda aniqlik kiritilishi mumkin. Statistika byulletenlarini e’lon qilish davriyligi Statistika dasturida belgilanadi.

Statistika organlari tomonidan e’lon qilinadigan statistika byulletenlari, quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tizimlashtirilgan:

Milliy hisoblar tizimi;
Narxlar va tariflar;
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi;
Sanoat;
Investitsiyalar va qurilish;
Xizmatlar sohasi;
Tashqi savdo;
Ulgurji va chakana savdo;
Transport;
Aloqa va axborotlashtirish;
Moliya va sug‘urta faoliyati;

Tashkilotlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati;
Ijtimoiy soha;
Aholining iqtisodiy faolligi, xodimlarning ish haqi va mehnat sharoitlari;
Aholi daromadlari va turmush darajasi;
Demografiya;
Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri.

3. Statistika byulletenlarini tayyorlashda mazkur qoidalarga muvofiq ularni rasmiylashtirishga qo'yilgan talablarga rioya qilish kerak.

Statistika agentligining statistika byulletenlari o'zbek (lotin) va rus tillarida, hududiy statistika boshqarmalarining statistika byulletenlari o'zbek (lotin) tilida tayyorlanadi.

Statistika byulletenlari nomi Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturida keltirilgan ish nomi bilan qat'iy ravishda mos kelishi kerak.

Statistika byulleteni, jadvallar tuzilishidan kelib chiqqan holda kitob (hoshiyasi: yuqori 2 sm, pastki 2 sm, o'ng 2 sm, chap 3 sm) yoki albom (hoshiyasi: yuqori 2 sm, pastki 2 sm, o'ng 2 sm, chap 3 sm) ko'rinishida rasmiylashtirilishi mumkin. Sahifalarga tartib raqamini qo'yish mundarijadan boshlanib, sahifaning pastki o'ng (qarama-qarshi hoshiyalar) tomonida joylashadi, shrift o'lchami 10.

## 2-bob. Muqovani va annotatsiyani rasmiylashtirish

4. Muqova (boshlang'ich sahifa) va annotatsiya statistika byulletenining majburiy elementlari hisoblanadi.

Muqovani rasmiylashtirishda, 1-ilova (Statistika agentligi uchun) va 1a-ilovada (hududiy statistika organlari uchun) keltirilgan namunaga amal qilish kerak.

Annotatsiya statistika byulletenida mavjud bo'lgan statistik ko'rsatkichlarning qisqacha mazmunini o'z ichiga olishi kerak.

Annotatsiya yangi varaqqa joylashtiriladi. "Annotatsiya" so'zi markaz bo'yicha joylashtiriladi, shrift o'lchami 14, yarim qora (to'q), annotatsiya matnining shrift o'lchami 12, satrlar orasidagi interval 1,5 satr.

Statistika byulleteni annotatsiyasini rasmiylashtirishda 2-ilovada keltirilgan namunaga amal qilish kerak.

## 3-bob. Mundarijani rasmiylashtirish

5. Bittadan ko'p jadvali bo'lgan statistika byulletenida "Mundarija" bo'limi bo'lishi kerak. Statistika byulleteni mundarijasini rasmiylashtirishda 3-ilovada keltirilgan namunaga amal qilish kerak.

Mundarijani alohida varaqqa joylashtirish kerak, "Mundarija" so'zi markaz bo'yicha joylashtiriladi, shrift o'lchami 14, yarim qora (to'q).

"Mundarija"da statistika byulleteni bo'limlarining nomi ko'rsatiladi.

Bo'limlarning nomi chap tomon bo'yicha tekislanadi, nomning oxirgi so'zidan to sahifa tartib raqamigacha bo'lgan bo'sh joylar nuqta belgisi bilan to'ldiriladi. Shrift o'lchami 12.

Yarim qora (to'q) shrift bilan faqat asosiy bo'limlarning nomi belgilanadi. Mundarija hajmidan kelib chiqib, satrlar orasidagi intervalni 1 dan 1,5 satrgacha kattalashtirish mumkin.

## 4-bob. Tahliliy ma'lumotlar va jadval materiallarini rasmiylashtirish

6. Tahliliy ma'lumotlar yangi varaqqa joylashtiriladi. "Tahliliy ma'lumotlar" so'zi markaz bo'yicha joylashtiriladi, shrift o'lchami 14, yarim qora (to'q), tahliliy ma'lumotlar matnining shrift o'lchami 12, satrlar orasidagi interval 1,5 satr.

Statistika byulleteni tahliliy ma'lumotlarini rasmiylashtirishda 3a-ilovada keltirilgan namunaga amal qilish kerak.

Keyin jadvallar tartib bilan joylashtiriladi.

7. Har bir jadvalning nomi, agar statistika byulletenida 5 tadan ortiq jadval bo'lsa, jadvallarning tartib raqami bo'lishi kerak.

Jadval nomining yakunida nuqta qo'yilmaydi. Jadvallar bo'limlar bo'yicha arab raqamlari bilan belgilanadi.

Jadval tartib raqami uning nomidan oraliq (probel) bilan ajratiladi va bo'lim tartib raqamidan so'ng nuqta bilan ajratiladi, masalan: **"1.1. Qurilish ishlari".**

Jadvallar, ustunlar va satrlarning nomi aniq, ixcham, lo'nda bo'lishi va hech qanday qisqartmalarsiz (umum qabul qilingan qisqartmalar yoki qisqartma so'zlardan tashqari) to'liq ko'rsatilishi kerak.

Jadval nomini jadvalning ustunlaridagi nomlardan tuzmaslik kerak, shuningdek "O'zbekiston Respublikasi", "O'zbekiston Respublikasi hududlari" so'zlarini jadval nomlarida takrorlamaslik kerak.

Jadval nomi markaz bo'yicha tekislanadi, shrift o'lchami yarim qora (to'q), jadvalga qaraganda 2 punktga katta (10-14) bo'lishi lozim.

Agar jadvalda keltirilgan barcha ma'lumotlar aynan bir o'lchov birligida ifoda qilingan bo'lsa, ushbu o'lchov birligi jadval ustunlari nomining tepasida ko'rsatiladi (kichik harflar bilan, qavssiz, shrift o'lchami 8-12, jadvalning ikki tomoniga tekislab ko'rsatiladi).

Agar o'lchov birligi satr va ustunlarning nomida bo'lsa, u vergul bilan ajratib ko'rsatiladi.

Jadval ustunlarining nomi qisqa bo'lishi kerak, umum qabul qilingan qisqartirishlardan tashqari, so'zlarni qisqartirishga yo'l qo'yilmaydi. Tekislash markaz bo'yicha (vertikal va gorizontal bo'yicha) amalga oshiriladi, shrift o'lchami 8-12.

Jadval chegaralari faqatgina ustunlarda (chetki chap va o'ng tomonlarsiz) va jadvalning yakuniy qismida (pastki gorizontal) ko'rinadigan qilib aks ettiriladi.

Satrlar nomi chap tomon bo'yicha tekislanadi. Satr nomlarining matni, zarur hollarda ahamiyatliligi va katta-kichikliligiga qarab rasmiylashtiriladi, asosiy satrdagi nomga tegishli yoki uni tashkil etuvchi bo'lgan keyingi ko'rsatkich nomi yangi xatboshi orqali yoziladi (Word "Формат" – "Абзац" – "Отступ" – "Слева" - 0,2 см, Excelda – "sichqoncha"ning o'ng tugmasi – "Формат ячеек" –

"Выравнивание" – "Отступ" – "1", xat boshini oraliq (probel) bilan qo'yib bo'lmaydi).

Agar jadval keyingi sahifada davom etsa, jadval ustunlari nomini takrorlash kerak. Jadval davomi joylashgan varaqda, ustunlar nomidan oldin, yuqori ikki tomonda "*Davomi*" va "*Продолжение*" so'zlari ko'rsatiladi, shrift o'lchami 8-12, kursiv.

Yakuniy satrlarni ("Jami", "O'zbekiston Respublikasi" va h.k.) yarim qora (to'q) shrift bilan (nomlar va raqamlarni) ajratish tavsiya etiladi.

"Shu jumladan", "ma'lumot uchun" "ulardan" iboralaridan so'ng ikki nuqta qo'yiladi.

Jadvallardagi raqamlar o'ng pastki tomon bo'yicha tekislanadi, shrift 8-12, o'nlik kasrlar – vergul bilan ajratiladi. Foydalanishda qulaylik yaratish uchun raqamlarni guruhlashdan foydalanish mumkin – Wordda oraliq (probel)dan, Excelda – Меню "Формат ячеек / Числовой / Разделитель групп разрядов".

Jadvallarni to'ldirishda quyidagi shartli belgilarga amal qilinishi lozim:

agar ushbu hodisa mavjud bo'lmasa, "–" (tire) belgisi qo'yiladi;

agar ma'lumot mavjud bo'lmasa, "…" (ko'p nuqta) belgisi qo'yiladi;

agar ushbu katak umuman to'ldirilmaydigan bo'lsa, "x" belgisi qo'yiladi;

agar ma'lumot mavjud bo'lsa, lekin raqamli qiymati jadvalda qabul qilingan aniqlikdan kichkina bo'lsa, " 0,0 " belgisi qo'yiladi.

Agar jadvalda bitta izoh bo'lsa, izoh belgisi sifatida " *) " belgidan foydalaniladi, agar izohlar bir nechta bo'lsa, ularni tartib raqami bo'yicha raqamlash talab etiladi " 1), 2), 3) ".

Izoh matni jadvalning oxirida ko'rsatiladi. Bunda, izoh boshida tegishli belgi qo'yiladi, oraliq (probel) qo'yiladi, so'ngra matn bosh harf bilan boshlanadi, qolganlari kichik harf bilan yoziladi, har bir izoh yakunida nuqta qo'yiladi (kursiv shriftda).

Statistika byulleteni jadval materiallarini rasmiylashtirishda 4, 4a, 4b, 4d va 4e - ilovalarda keltirilgan namunalarga amal qilish kerak.

## 5-bob. Yakuniy sahifani rasmiylashtirish

8. Statistika byulletenining yakuniy sahifasini rasmiylashtirishda 5-ilovada keltirilgan namunaga amal qilinishi kerak.

Yakuniy sahifada statistika byulletenining nomi, chop etishga javobgar statistika organining bo'linmasi nomi, bo'linma bilan bog'lanish uchun telefon raqami va bo'linma boshlig'ining elektron pochta manzili, ko'paytirishga javobgar bo'linma nomi, mas'ul bo'linma kodi, buyurtma raqami, sanasi va adadi to'g'risida ma'lumotlar aks ettirilishi lozim.

9. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

NAMUNA

1-ILOVA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

Shrift Arial – 14, yarim qora (to'q)

Shrift Arial, 20-35, yarim qora (to'q)

# QURILISH FAOLIYATI

Shrift Arial – 25, yarim qora (to'q)

## 2022- yil

# СТРОИТЕЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

## на 2022 год

Shrift Arial – 14, yarim qora (to'q)



**STATISTIKA BYULLETENI**

**СТАТИСТИЧЕСКИЙ БЮЛЛЕТЕНЬ**

Shrift Arial – 14, yarim qora (to'q)

**Toshkent – 2023- y.**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

Shrift Arial – 14,
yarim qora (to‘q)

**ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

Shrift Arial – 12,
yarim qora (to‘q)

Shrift Arial, 20-35,
yarim qora (to‘q)

# QURILISH FAOLIYATI

Shrift Arial – 25,
yarim qora (to‘q)

## 2022- yil

Shrift Arial – 14,
yarim qora (to‘q)




Shrift Arial – 9,
yarim qora (to‘q)

**STATISTIKA BYULLETENI**

Shrift Arial – 14,
yarim qora (to‘q)

**Andijon – 2023- y.**

**NAMUNA**

Shrift – Times New Roman – 12

# Annotatsiya
# Аннотация

Shrift – Times New Roman, 14, yarim qora (to'q)

2 - ILOVA

"Qurilish faoliyati" statistika byulleteni o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat ishlari hajmlarining natijalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar statistika boshqarmalarining ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Byulletenda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)ga muvofiq binolar va inshootlar qurilishi, fuqarolik qurilish obyektlari, iqtisoslashtirilgan qurilish ishlari guruhlaridagi kodlar asosida hisoblangan qurilish ishlari hajmlari keltirilgan.

Mazkur byulletenga kichik korxonalar va mikrofirmalar, xo'jalik usulida bajarilgan qurilish ishlari, jismoniy shaxslar tomonidan bajarilgan yakka tartibdagi turar va noturar joylar qurilishi ma'lumotlari ham qo'shilgan.

Satrlar orasidagi interval – 1,5, abzats (so'ngra 6-12 pt)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi bo'yicha hududlar, vazirlik va idoralar, mulkchilik shakllari kesimida keltirilgan.

Статистический бюллетень "Строительная деятельность" объем строительных работ выполненных собственнами силами капитальные и текущий ремонт и другие работы, объем строительных работ, результаты подготовлен на основе данных управлений статистики Республики Каракалпакстан, областей и г. Ташкента.

В бюллетене приводятся строительство зданий и сооружений, строительство объектов гражданского назначения, специализированные строительные объекты группам в соответствии с Общегосударственным классификатором видов экономической деятельности Республики Узбекистан (ОКЭД-2).

В бюллетень также включены отчетные данные малых предприятий и микрофирм, по строительству, выполняемому хоз.способом, индивидуальному жилищному и нежилому строительству, выполненному физическими лицами.

Данные приведены за счет всех источников финансирования в целом по Республике Узбекистан в разрезе территорий, министерств и ведомств, форм собственности.

**NAMUNA** 3 - ILOVA

## Mundarija

## Содержание

Shrift Times New Roman – 14, yarim qora (to‘q)

Shrift Times New Roman – 12, yarim qora (to‘q)

**Annotatsiya**.....................................................................................................................

**1. Bo‘lim nomi**.....................................................................................................................

**1. Наименование раздела**.....................................................................................................

1.1. Jadval nomi .....................................................................................................................
1.1. Наименование таблицы.....................................................................................................

1.2. Jadval nomi .....................................................................................................................
1.2. Наименование таблицы.....................................................................................................

Shrift Times New Roman – 12, 1 sm ga siljitilgan

**2. Bo‘lim nomi** .....................................................................................................................

**2. Наименование раздела**.....................................................................................................

2.1. Jadval nomi .....................................................................................................................
2.1. Наименование таблицы.....................................................................................................

2.2. Jadval nomi .....................................................................................................................
2.2. Наименование таблицы.....................................................................................................

**NAMUNA**

3a - ILOVA

Shrift Times New Roman – 14, yarim qora (to'q)

**Tahliliy ma'lumotlar**

Shrift Times New Roman – 12

**Аналитическая информация**

2022-yilda 130790,9 mlrd. so'm yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 106,6 % qurilish ishlari bajarildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,5 % ni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 109,1 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini jami qurishlish ishlari hajmidagi ulushi, joriy davrda 21,1 foizni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 7,4 % to'g'ri keldi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.

В 2022 года объём выполненных строительных работ составил 130790,9 млрд. сум или 106,6 % к аналогичному периоду 2021 года.

Основная часть строительных работ по видам экономической деятельности была выполнена за счет строительства жилых зданий и нежилых помещений. Их доля в общем объеме строительных работ составила 71,5 % и, по сравнению с аналогичным периодом 2021 года темп роста составила 109,1 %

Доля в объеме строительных работ как строительство объектов гражданского назначения составила 21,1 % и, по сравнению с аналогичным периодом 2021 года составила 100,9 %

Доля специализированных строительных работ составила 7,4 % и, по сравнению с аналогичным периодом 2021 года составила 100,6 %

**Jadvalning hududlar kesimidagi namunasi**
*"Kitob shaklida"*

4 - ILOVA

Shrift Times New Roman, 12 pt, yarim qora (to'q), abzas – so'ngra 6 pt.

**2022- yilda qurilish ishlari**

Строительные работы за 2022 год

Shrift Times New Roman – 10, abzas - so'ngra 3 pt.

mln. so'm | млн. сум

| | Jami<br>Всего | Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish<br>Новое строительство, реконструкция, расширение, техническое перевооружение | Kapital ta'mirlash<br>Капитальный ремонт | Joriy ta'mirlash<br>Текущий ремонт | Boshqa pudrat ishlari<br>Другие подрядные работы | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **130 790 912,7** | **97 568 607,2** | **12 569 733,9** | **8 433 975,8** | **12 218 595,8** | **Республика Узбекистан** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 5 272 411,2 | 3 868 607,4 | 458 501,7 | 531 437,1 | 413 865,0 | Республика Каракалпакстан |
| viloyatlar: | | | | | | области: |
| Andijon | 6 864 054,5 | 4 866 473,9 | 900 189,6 | 676 835,4 | 420 555,6 | Андижанская |
| Buxoro | 8 448 714,3 | 6 074 781,3 | 1 093 369,5 | 623 127,0 | 657 436,5 | Бухарская |
| Jizzax | 3 446 449,1 | 2 544 828,9 | 301 522,7 | 303 332,9 | 296 764,6 | Джизакская |
| Qashqadaryo | 7 793 809,2 | 5 035 858,4 | 1 250 177,2 | 598 747,9 | 909 025,7 | Кашкадарьинская |
| Navoiy | 5 854 963,5 | 4 719 021,0 | 454 022,9 | 436 125,3 | 245 794,3 | Навоийская |
| Namangan | 6 653 228,3 | 4 714 289,9 | 698 635,2 | 725 982,6 | 514 320,6 | Наманганская |
| Samarqand | 8 895 437,4 | 6 652 936,4 | 621 077,8 | 1 033 500,3 | 587 922,8 | Самаркандская |
| Surxondaryo | 6 521 850,3 | 5 553 275,8 | 446 688,8 | 237 315,3 | 284 570,4 | Сурхандарьинская |
| Sirdaryo | 3 260 079,5 | 2 462 659,8 | 443 349,2 | 200 196,8 | 153 873,5 | Сырдарьинская |
| Toshkent | 12 237 407,0 | 9 597 745,4 | 1 084 546,2 | 733 201,3 | 821 914,1 | Ташкентская |
| Farg'ona | 8 645 977,7 | 6 125 587,2 | 799 484,2 | 744 217,3 | 976 689,0 | Ферганская |
| Xorazm | 4 878 363,1 | 3 782 041,7 | 434 774,2 | 403 496,7 | 258 050,4 | Хорезмская |
| Toshkent sh. | 32 946 096,4 | 22 498 428,8 | 3 583 394,7 | 1 186 459,8 | 5 677 813,1 | г.Ташкент |

**Jadvalning mulkchilik shakllari bo'yicha namunasi**

*"Kitob shaklida"*

**4a - ilova**

Shrift Times New Roman - 12, yarim qora (to'q), abzas - so'ngra 6 pt.

**2022- yilda qurilish ishlari**

Строительные работы за 2022 год

Shrift Times New Roman – 10, so'ngra 3 pt.

| mln. so'm | | | | | | млн. сум |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami<br>Всего | Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish<br>Новое строительство, реконструкция, расширение, техническое перевооружение | Kapital ta'mirlash<br>Капитальный ремонт | Joriy ta'mirlash<br>Текущий ремонт | Boshqa pudrat ishlari<br>Другие подрядные работы | |
| **O'zbekiston Respublikasi** | **130 790 912,7** | **97 568 607,2** | **12 569 733,9** | **8 433 975,8** | **12 218 595,8** | **Республика Узбекистан** |
| shu jumladan mulkchilik shakli: | | | | | | |
| Nodavlat mulkchilik shakli | 126 705 296,5 | 95 642 970,7 | 12 132 950,6 | 7 161 222,0 | 11 768 153,2 | Негосударственная собственность |
| Davlat mulki | 4 085 616,2 | 1 925 636,5 | 436 783,3 | 1 272 753,8 | 450 442,6 | Государственная собственность |

Shrift Times New Roman – 10, yarim qora (to'q)

Shrift Times New Roman – 10, razryadlar orasidagi interval

**Jadvalning hududlar bo'yicha namunasi** **4b - ilova**

*"Albom shaklidа"*

Shrift Times New Roman – 13, yarim qora (to'q), abzas – so'ngra 6 pt

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Производство промышленной продукции по регионам

Shrift Times New Roman – 11, abzas – so'ngra 3 pt

mlrd. so'm млрд. сум

| | Ishlab chiqarish hajmi<br>Объем производства | Ulushi, % da<br>Удельный вес, в% | 2023- yil yanvar-dekabr 2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan FHI<br>ИФО январь-декабрь 2023 г. к январю-декабрю 2022 г. | |
|---|---|---|---|---|
| **O'zbekiston Respublikasi** | **655 821,9** | **100,0** | **106,0** | **Республика Узбекистан** |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 18 803,1 | 2,9 | 101,1 | Республика Каракалпакстан |
| viloyatlar: | | | | области: |
| Andijon | 73 579,3 | 11,2 | 107,3 | Андижанская |
| Buxoro | [illegible] 633,9 | 4,8 | 106,1 | Бухарская |
| Jizzax | [illegible] 000,6 | 2,9 | 107,4 | Джизакская |
| Qashqadaryo | 28 259,6 | 4,3 | 107,1 | Кашкадарьинская |
| Navoiy | 101 594,8 | 15,5 | 106,7 | Навоийская |
| Namangan | 20 826,5 | 3,2 | 107,2 | Наманганская |
| Samarqand | 32 676,8 | 5,0 | 105,8 | Самаркандская |
| Surxondaryo | 8 745,4 | 1,3 | 105,6 | Сурхандарьинская |
| Sirdaryo | 15 190,7 | 2,3 | 107,1 | Сырдарьинская |
| Toshkent | 105 762,5 | 16,1 | 105,1 | Ташкентская |
| Farg'ona | 36 661,2 | 5,6 | 106,2 | Ферганская |
| Xorazm | 21 167,9 | 3,2 | 106,1 | Хорезмская |
| Toshkent sh. | 123 628,3 | 18,9 | 105,7 | г.Ташкент |

Shrift Times New Roman – 11, yarim qora (to'q)

**Jadvalning faoliyat turlari bo'yicha namunasi** **4d - ilova**

*"Albom shaklida"*

Shrift Times New Roman, 13, yarim qora (to'q)

## Faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Производство промышленной продукции по видам деятельности

Shrift Times New Roman – 11, abzas – so'ngra 3 pt.

mlrd. so'm млрд. сум

Shrift Times New Roman – 11, yarim qora (to'q)

| | Ishlab chiqarish hajmi<br>Объем производства | Ulushi, % da<br>Удельный вес, в% | 2023- yil yanvar-dekabr 2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan FHI<br>ИФО январь-декабрь 2023 г. к январю-декабрю 2022 г. | |
|---|---|---|---|---|
| **Jami sanoat mahsuloti:** | **655 821,9** | **100,0** | **106,0** | **Промышленная продукция всего:** |
| **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** | **55 240,5** | **8,4** | **101,0** | **Горнодобывающая промышленность и разработка карьеров** |
| *shundan:* | | | | *из неё:* |
| ko'mir, lignit, xom neft va tabiiy gaz qazib olish | 35 109,6 | 5,4 | 100,6 | добыча угля, лигнита, нефти и природного газа |
| metall rudalarini qazib olish | 14 153,6 | 2,2 | 100,1 | добыча металлических руд |
| boshqa turdagi tog'-kon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish | 4 077,1 | | | прочая деятельность горнодобывающей промышленности |
| **Ishlab chiqaradigan sanoat** | **553 333,4** | **84,4** | **106,7** | **Обрабатывающая промышленность** |
| *shundan:* | | | | *из неё:* |
| oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish | 86 342,5 | 13,2 | 105,9 | производство продуктов питания, напитков,табачных изделий |
| to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish | 96 394,1 | 14,7 | | производство текстильных изделий, одежды, кожаной продукции |
| yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish | 11 733,8 | 1,8 | 102,9 | производство деревянных и пробковых изделий, изделий из соломки и материалов для плетения, бумаги и бумажной продукции,мебели |
| yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish | 2 146,7 | 0,3 | 91,3 | печать и воспроизведение записанных материалов |

Shrift Times New Roman – 11, razryadlar orasidagi interval

Ahamiyatliligi va katta-kichikliligiga qarab joylashtirish

**Byulletenning yakuniy jadvali namunasi** **4e - ilova**

*"Albom shaklida"*

*Davomi* — Shrift Times New Roman – 11, kursiv, abzas – so'ngra 6 pt *Продолжение*

mln. so'm млн. сум

| | Ishlab chiqarish hajmi<br>Объем производства | Ulushi, % da<br>Удельный вес, в % | 2023- yil yanvar-dekabr 2022- yil yanvar-dekabrga nisbatan FHI<br>ИФО январь-декабрь 2023 г. к январю-декабрю 2022 г. | |
|---|---|---|---|---|
| koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish | 25 027,1 | 3,8 | 127,1 | производство кокса и продуктов нефтепереработки |
| kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish | 45 416,9 | 6,9 | 99,8 | производство химической продукции, резиновых и пластмассовых изделий |
| asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlar ishlab chiqarish | 4 026,4 | 0,6 | 101,5 | производство основных фармацевтических продуктов и препаратов |
| boshqa nometall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish | 27 965,3 | 4,3 | 111,3 | производство прочей неметаллической минеральной продукции |
| metallurgiya sanoati | 126 302,7 | 19,3 | 106,4 | металлургическая промышленность |
| mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish | 123 920,8 | 18,9 | 107,4 | производство, ремонт, установка машин и оборудования, производство автотранспортных средств, трейлеров и полуприцепов, прочих готовых металлических изделий |
| **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash** | **44 247,7** | **6,7** | **109,7** | **Электроснабжение, подача газа, пара и кондиционирование воздуха** |
| **Suv bilan ta'minlash, kanalizasiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizasiya qilish** | **3 000,3** | **0,5** | **101,0** | **Водоснабжение, канализация, сбор и утилизация отходов** |

**NAMUNA** 5 - ILOVA

Shrift Times New Roman – 13,
yarim qora (to'q)

**Qurilish faoliyati**
**2022- yil**

**Строительная деятельность**
**за 2022 год**

Shrift Times New Roman – 12,
yarim qora (to'q)

**Chop etishga javobgar:**

**Ответственный за выпуск:**

**Statistika agentligi Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**

**Управление статистики инвестиций и строительства Агентства статистики**

Bog'lanish telefon raqamlari:
Контактные телефоны:
(998 71)
202-__-__, 202-__-__

*E-mail:* ____________

**Ko'paytirishga javobgar:**

**Ответственный за тиражирование:**

**Statistika agentligi Statistik materiallar tarqatishni texnik qo'llab-quvvatlash shu'basi**

**Сектор технической поддержки распространения статистических материалов Агентства статистики**

**№ XX-___ dan**
**20___ yil "___"___________**

Boshqarma kodi

**Buyurtma raqami____**
**20___ yil "___"__________**
**Adadi _____ Nusxa**